

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI**

**"MARKAZIY OSIYO MAMLAQATLARIDA MADANIY HAYOT VA
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJINING DOLZARB
MUAMMOLARI"**

Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya

**КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И АКТУАЛЬНЫЕ
ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК
международная научно-практическая конференция**

**"CULTURAL LIFE IN CENTRAL ASIA AND CONTEMPORARY
PROBLEMS IN THE DEVELOPMENT OF THE SOCIAL
SCIENCES AND HUMANITIES"
of the international scientific online practical conference**

ONLINE CONFERENCE

**ТОШКЕНТ
«TAFAKKUR»
2020**

УЎК 908(575.1)(063)
26.89(5Ў)я43
Ў 43

“Markaziy osiyo mamlakatlarida madaniy hayot va ijtimoiy-gumanitar fanlar rivojining dolzarb muammolari”. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya [Math]. – T.: Tafakkur, 2020. – 600 b.

КБК 26.89(5Ў)я43

ISBN-978-9943-24-308-8

© «Tafakkur», 2020

FARIDIDDIN ATTOR IJODIDA KOMIL INSON TA'LIMOTI

S.I.Kambarova

Ped. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD)

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU., Toshkent shahri

Annonatsiya. Maqolada adabiy ta'limgarayonida o'quvchilarni kitob mutolaasiga qiziqtirish, bunda badiiy asarlarni tanlab tavsija qilish yo'llari hamda mutolaada uzviylikni ta'minlash masalalari xususida so'z yuritiladi. Shuningdek, mustaqil o'qishni tashkil etishda yosh avlod ma'naviy kamolotida muhim o'r'in tutadigan yondashuvlar mutasavvuf shoir Farididdin Attor ijodini o'rganish misolida tahlilga tortiladi. Shoir adabiy merosini o'rganishda Alisher Navoyni cheksiz hayratlarga solgan va "Lison ut-tayr" dostonini yaratishga cheksiz ilhom baxsh etgan "Mantiq ut-tayr" asarining mazmun-mohiyatini anglatishga doir fikrlar bayon etiladi. Tahlilda Farididdin Attor ijodining bosh g'oyasi, avvalo, nafsnan tanish, nafsga qarshi kurashish va uni poklash yo'li bilan Haqqa yetishish ekanligi ta'sirchan manzaralar orqali aks ettirilganligi masalasiga urg'u qaratiladi.

Kalit so'zlar. Mutolaa, mustaqil o'qish, ma'naviyat, komil inson, tasavvuf, mutasavvuf shoir, hikoyat, pir, qanoat, nafs.

So'nggi yillarda umumiy pedagogikaga oid tadqiqot ishlarida mutolaa madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari doir yondashuvlar ta'limgarayonida samardorligini ta'minlashning muhim omili sifatida tadqiq qilinadi. Negaki, mutolaa jarayonlarini takomillashtirish jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishida poydevor vazifasini o'taydi, uni sifat jihatidan yangi bosqichlarga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Abu Nasr Forobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Husayn Voiz Koshifiy, Alisher Navoiy, Munis, Ogahiy, keyinchalik Mahmudho'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy asarlarida "o'qish, o'qiganni uqish hamda unga amal qilish" inson ma'naviy kamoloti bilan bog'liqligi qayta-qayta tilga olinishi bejiz emas. O'quvchilarni mutolaaga qiziqtirishda bir qator tamoyillar taqozo qilinishini Farididdin Attor ijodini o'rganish misolida bayon etish mumkin.

Farididdin Attor ijodini o'rganar ekanmiz, undagi komil inson muammozi insoniyatning azaliy ezgu niyati bo'lib kelganligini kuzatish

mumkin. Komillik ta'lomit taraqqiyotning barcha davrlarida ijtimoiy, ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy jihatdan o'ta dolzarbliji bilan ahamiyatlidir.

Ma'lumki, uzluksiz adabiy ta'limgarayonida Alisher Navoiy ijodi o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib, oddiydan murakkabga tamoyili asosida o'rganiladi. Mutfakkir umrbayoni bilan tanishish jarayonida o'quvchilar bolalik chog'laridanoq kitobga o'zgacha mehr qo'ygan buyuk iste'dod sohibi mutasavvuf shoir Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini sevib mutolaa qilganligi, hatto boshdan oxir yod olganligi, "Bir umr bu asar ta'sirida yurib, hayotining so'ngida unga "tarjuma rasmi bila" javob aytgan"ligi [4, 3], ya'ni "Lison ut-tayr"dek chuqur falfasiy bir dostonning dunyoga kelishiga zamin yaralganligi haqidagi ma'lumotlarga duch kelishadi. Shuningdek, 5-sinfda tarixchi adib M.Osimning Navoiyga bag'ishlangan "Zulmat ichra nur" qissasidan keltirilgan parchani o'rganishlari davomida ham "Mantiq ut-tayr" yosh Alisher qalbini o'ziga tamomila rom

etganligi, allanechuk xayolparast, odamovi bo‘lib qolgan o‘g‘lining ruhiyatidagi o‘zgarishlardan xavotirlangan ota-onasi bu kitobni o‘qishni man etib, uni yashirib qo‘yanligi haqidagi lavhalar yuqoridagi ma‘lumotlarning badiiy in’ikosi sifatida o‘quvchilar ko‘z o‘ngida gavdalanadi. Tarjimai holi bayoni va “Qushlar tili”da tasvirlangan voqealar o‘zaro uyg‘unlashib, bo‘lajak shoir ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan asar va uning muallifi haqida o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otishi, shubhaisiz. Shuningdek, o‘quvchilarning Attor ijodini o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytirish borasida o‘qituvchi uning “Ilohiynoma” kitobida zikr etilgan quyidagi hikoyatni so‘zlab berish orqali ham mutolaaga motivatsiya berishi mumkin:

“Naql qilishlaricha, burungi o‘tgan zamonda bir badavlat odam yashagan ekan. U umr bo‘yi yiqqan boyliklarini oltin tangalariga aylantirib, bir hamyonga to‘plab yurar ekan. Ittifoqo o‘sha davlatmand vafot etibdi. Kunlardan bir kun o‘g‘illari tush ko‘rsa, otasi mushukka aylanib qolgan emish. – Bu yerda nima qilib yuribsiz, sizni kim bu ko‘yga soldi, otajon? – so‘rabdi o‘g‘li.

– Kimda kim dunyo moliga hirs qo‘yib yig‘sа, shu xasis mushuk sichqонни poylagan-dek, boyligi atrofida sargardon yuradi, – debdi otasi. Shundan so‘ng o‘g‘illari otadan qolgan boylikni beva-bechoralaru, madrasa talabalariga taqsimlab berib, nafsi ammorani cheklab, ishqи ilohiy yo‘lida fidoiylik bilan riyozat chekib yashay boshlabdilar” [2,150].

Adabiy ta’lim jarayonida yuqoridagi kabi usullarni qo‘llash dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘rtasidagi uzviylik va izchilikni ta’minalashga xizmat qiladi. O‘qituvchi mashg‘ulotlarni o‘quvchilarda tabiiy ravishda paydo bo‘ladigan istak va moyilliklarni nazarda tutgan holda rejallashtirishi zarur. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari 9-sinf “Adabiyot” darsligida Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoniga qo‘srimcha tarzda komil inson haqidagi nazariy ma‘lumot berilgan. Unda tasavvuf tushunchasi badiiy adabiyotda komillik timsoli sanalgan Farhod obrazi misolida yanada kengroq yoritilgan [5, 85–86]. Binobarin, bu ikki tushunchani o‘rganish uchun asosli mushtaraklik mavjud.

Qadimdan yurt tinchligi, xalq manfaati,

jamiyat taraqqiyoti ma’naviy yetuk insonlar qo‘liga ishonib topshirilishi bejiz emas, al-batta. Komil inson tarbiyasida esa tasavvuf ta’limotiga ehtiyoj seziladi. Istiqlol mafkurasi va jamiyat ma’naviyati shakllanib, oyoqqa turishida muqaddas islam dini ta’siri beqiyos. Shu bois mamlakatimizda olib borilayotgan mustaqillik ma’naviyati siyosati ildizlari bevosita tasavvuf g‘oyalari bilan sug‘orilgani sir emas. O‘quvchilar tasavvuf haqida yetarlicha bilimga ega bo‘lishlari uchun bu ta’limot mohiyati chuqr singdirilgan Farididdin Attor asarlariga murojaat qilinishi maqsadga muvofiq. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul o‘z tadqiqotlarida tasavvufning “bashariyat havas qiladigan va qiziqadigan eng yorqin va ilg‘or jihatlari yoki tamoyillarini qunt bilan o‘rganib, o‘zlashtirish” zarurligi xususida atroficha fikr yuritib, unga “ishtiyоq va qiziqish millatning tafakkur rivoji, madaniy saviyasiga zarracha ham xalal bermaydigan darajada keng va yuqori bo‘lmog‘i lozim”ligini e’tirof etadi [3, 295].

Mazkur talablardan kelib chiqib, mashg‘ulotlarda axloqiy-ta’limiy va falsafiy mavzulardagi adabiyotlardan foydalanish ko‘zda tutiladi. O‘qituvchining mutasavvuf shoir hayoti va adabiy merosi, shuningdek, mustaqillik yillarida bu borada olib borilayotgan tadqiqotlar, hikoyatlardan tarjimalar, chop etilgan maqolalar yuzasidan yetarlicha xabar-dor bo‘lishi o‘quvchilarga zarur adabiyotlarni tavsiya qilishida dolzarblik kasb etadi. Adib ijodini o‘rganishga bag‘ishlangan mashg‘ulot “Tavsiyalar”, “Izlanishlar” va “Natijalar” deb nomlangan uch bosqichda amalga oshirilishi rejalashtiriladi. Dastlabki bosqichda milliy va umuminsoniy muammolar talqiniga keng o‘rin berilgan bir qancha asarlar mustaqil o‘qishga beriladi. “Izlanishlar” bosqichida esa quyidagi usullarni qo‘llash orqali tavsiya etilgan adabiyotlar o‘quvchilar tomonidan qay darajada o‘qib-o‘rganilayotgani aniqlanadi:

1. “Davomini siz ayting” usuli. Mazkur usuldan adabiyot darslarida uyushtiriladi-gan “Lirik chekinish”lar chog‘ida foydalanish mumkin. Buning uchun dastlab o‘quvchilar badiiy-estetik tafakkuri, mustaqil kitobxonligini shakllantirishga ahamiyatli sanalgan asarlar tanlanadi. So‘ngra asarlarning ayrim o‘rinlari o‘qituvchi tomonidan yoddan o‘qiladi yoki AKT imkoniyatlari doirasida yozib

olinib, o'quvchilar e'tiboriga havola qilinadi. O'quvchilar bu lavha ijodi o'rganilayotgan adibning qaysi asaridan olinganligi; agar matn dialog shaklida bo'lsa, suhbat kimlarning o'rta-sida bo'lib o'tganligi; monolog tarzidagi matn qaysi qahramon nutqiga tegishli ekanligi; hikoyat kim tomonidan o'zbek tiliga tajriba qilinganligi; keltirilgan parchadan so'ng voqealar davomi qanday yakun topganligini qisqacha hikoya qilib berishlari, shuningdek, asarda ilgari surilgan g'oyani izohlashlari va xulosalarini bayon etishlari zarur bo'ladi.

2. Navbatdagi usul "Kim nimani bilib oldi?" deb nomlanadi. Bunda o'quvchilarning mustaqil o'qishlari darsdan tashqari va qtarda maxsus so'rovnomalar o'tkazish yo'-li bilan aniqlanadi. Savol va topshiriqlarda o'quvchilarning tavsiya etilgan asarlardan qaysilarini o'qiganligi; o'zlariga manzur bo'lган hikoyat va hikmatlardan namunalar keltirishi; qaysi qahramonlarning xatti-harakatlari ma'qul bo'lganligi; voqealar bo'lib o'tgan joylardagi tabiat manzaralarini tasvirlashi; asarning o'zlariga yoqqan lavhalaridan misollar keltirishi so'ralib, sahifa yakuniga "Qiziqsangiz, bir o'qib ko'ring..." jumlalari qayd etiladi. Unda har bir o'quvchi uchun muayyan asardan alohida tanlab olingan parchalar taqdim etiladi. Jumladan: *Ali yo 'lda borarkan shasht ila to, Chumoliga ziyon etkazdi nogoh. Chumoli qo 'l-oyoq silkirdi nolon, Ali ko 'rdi va bo 'ldi ko 'ngli vayron...[1, 253]* kabi.

Izlanishlari samarasini belgila ruvchi mashg'ulot ko'rinishidagi "Natijalar" bosqichi o'quvchilar bilimlarini sarhisob qiladi va umumlashtiradi.

Mutasavvuf shoir ijodini o'rganish "Pirila shoh" hikoyati tahlilidan boshlanmog'i ma'qul. Qadim zamonlarda mol-mulki haddan ziyod bir podshoh yashagan bo'lib, hatto yetmish yoshga kirganida ham o'y-xayolini boylik to'plash orzusi tark etmagan edi. Shu o'lkada dovrug'i yetti iqlimni tutgan piri komil faqirona umrguzaronlik qilar, ilm-u hunaridan esa el-ulusga ko'p foydasi tegardi.

Kunlarning birida haligi shoh ul zotning huzuriga kelib, ikkisidan qaysi biri ustunligi, unda o'zinikidan afzalroq nimasi borligini so'rabdi. Shu o'rinda o'quvchilar bilan qanoat va nafs haqida munozara yuritish orqali bu ikki tushunchaning inson ma'naviy kamolotidagi

o'rni anglanishiga zamin yaratiladi. O'ziga sabr-toqat va shukronalikni kasb etgan pir komillik timsoli. U nafsoniy istaklarni riyoza ilo mahf etib, o'z izmiga bo'ysundira olgan va Haq diydoriga musharraf bo'lmoqlikni ixtiyor etgan solik.

Hayot mazmunini faqat moddiy boyliklarda deb bilgan podshoh esa shaytoniy qutqularga uchgan xudbin bir kimsa. Foniy dunyo hoy-u havaslariga ortiqcha ruju qo'yish uni o'zligidan judo etib, nafs botqog'iga botiradi. Qanchalik bisyor bo'lmasin shohning davlatidan o'zgalarga zarracha naf yetmaydi. Pir esa yurt koriga yarash, qalblarni ilm ziyosi bilan nurafshon etish kabi xayrli amallar istagida yashaydi. Buning evaziga boshqalardan hech narsa ta'ma qilmaydi. Ikkisining farqli jihatlari ham ana shunda. Ko'rinadiki, pir kamtarlik, himmat va saxovat bobida shohdan ancha pog'ona yuqori turadi. Hikmatda inson nafsi yengishi orqaligina ruhan poklanishga da'vat etiladi. Demak, hikoyat tahlilidan qanoat va ma'rifat insonni maqsad sari eltuvchi shamchiroq, kibr-u havo, johillik va ilmsizlik unga mone'lik ko'rsatuvchi bid'atdir, degan xulosaga kelish mumkin.

Mashg'ulot yakunida o'quvchilar bilan Attor asarlaridan olingan taassurotlar yuzasidan o'rtoqlashiladi.

Xulosa shuki, bugungi kunda komil insonni tarbiyalash masalasi ahamiyatlidir. Chunki, insonning o'ziga xos sifatlari, fazilatlari, xislatlari, ichki potentsial imkoniyatlari, iste'dod nishonlari qancha erta shakllantirilsa, kelajakda komil insonni tarbiyalash ham tezlashadi. Shu sababdan, o'quvchilarga Farididdin Attor ijodidagi komillikga erishish ta'limotini o'r-gatishimiz maqsadga muvofiqdir. O'quvchi yoshlar shoir ijodidagi komil inson ta'limotini ongli ravishda singdirib, komillik sari qancha tezkor harakat qilsa, u kamolotni ertaroq egalaydi va jamiyat taraqqiyotining jadallashtirishga munosib hissa qo'shadi.

Attor o'z ijodida komillikka erishish yuzasidan keng ko'lamli va tarbiyaviy mulohazalarni keltiradi. U komil inson ta'limotida haqiqatni, sabr-toqat va shukronalikni ustuvor mezon sifatida ko'rsatib o'tadi. Mutasavvuf shoir ijodidagi ushbu komillik mezonlari har bir inson o'zini anglashi va tarbiyalashi uchun o'rganishiga loyiqdir.

Adabiyotlar

1. Фаридуддин Аттор. Ҳикматлар ва ҳикоятлар. –Т.: Мухаррир, 2010.
2. Ҳамидjon Ҳомидий. Тасаввуф алломалари. –Т.: Шарқ, 2009.
3. Иброҳим Ҳаққул. Тақдир ва тафаккур. –Т.: Шарқ, 2007.
4. Очилов Э. Ҳикмат маърифати (Сўзбоши). Фаридуддин Аттор. Ҳикматлар ва ҳикоятлар. –Т.: Мухаррир, 2010.
5. Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. –Т.: O‘zbekiston, 2019.

Босишга 20. 08. 2020 йилда рухсат этилди.
Бичими 60x84 $\frac{1}{8}$. Ҳажми 19,5 б.т. Адади 100 нусха.
Буюртма № 31/12.

«Tafakkur» нашриёти.

«ADAD PLYUS» МЧЖ босмахонаси.
Тошкент ш. Чилонзор тумани, Бунёдкор кўчаси, 28-уй.

**“MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA MADANIY HAYOT VA
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJINING DOLZARB
MUAMMOLARI”**

Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya

**КУЛЬТУРНАЯ ЖИЗНЬ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ И АКТУАЛЬНЫЕ
ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**
международная научно-практическая конференция

**“CULTURAL LIFE IN CENTRAL ASIA AND CONTEMPORARY
PROBLEMS IN THE DEVELOPMENT OF THE SOCIAL
SCIENCES AND HUMANITIES”**
of the international scientific online practical conference

ONLINE CONFERENCE